

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

Urganch davlat universiteti rektori

B. Abdullayev

2023-yil "28"-avgust

**IKKINCHI CHET TILI
FANINING O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:

200 000 San'at va gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi:

230 000 Tillar

Ta'lim yo'nalishi:

60230100 Filologiya va tillarni o'qitish
(Roman-german tillari)

Urganch-2023

Mazkur o'quv dastur Urganch davlat universiteti kengashining 2023-yil "28"- avgustdagi № 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

S.U.Xodjaniyazov

O'quv-uslubiy boshqarma
boshlig'i:

G.R. Matlatipov

Mazkur o'quv dastur "Xorijiy filologiya" fakulteti Kengashining 2023-yil "28" avgustdagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.
(№1-sonli bayonnoma).

Fakultet Kengashi raisi:

dots.Jumaniyozov Z.O.

Fan dasturi Xorijiy filologiya fakulteti "Roman-german filologiyasi" kafedrasining 2023- yil 28-avgustdagi majlisida (Bayonnoma № 1) muhokama qilindi va fakultet kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya qilindi.

Kafedra mudiri:

katta o'qit. Abdullayeva G.E.

Fan/modul kodi ICHTB234256		O‘quv yili 2023-2024 2024-2025 2025-2026	Semestr 3-4-5-6-7-8	ECTS - Kreditlar 3-semestr – 5 4-semestr – 4 5-semestr – 5 6-semestr – 4 7-semestr – 5 8-semestr – 2	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili Ingliz Nemis Fransuz		Haftadagi dars soatlari 4/4/4/4/2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ikkinchi chet tili	330 3-semestr – 60 4-semestr – 60 5-semestr – 60 6-semestr – 60 7-semestr – 60 8-semestr – 30		420 3-semestr – 90 4-semestr – 60 5-semestr – 90 6-semestr – 60 7-semestr – 90 8-semestr – 30	750
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga o‘rganilayotgan ikkinchi chet tilini kasbiy faoliyatda amaliy qo‘llay olish tamoyillariga amal qilgan holda integrallashgan yondashuv asosida o‘rgatish, o‘rganilayotgan ikkinchi chet tilida ravon va aniq so‘zlashishlarini ta’minlashdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarni nutq vaziyatlaridan to‘g‘ri va unumli foydalanishga o‘rgatish, nutq ko‘nikmalarini fonetik, grammatik, leksik, stilistik va tipologik jihatdan to‘laqonli shakllantirish, tilni dunyoda sodir bo‘layotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy voqelikka nisbatan o‘rganilayotgan chet tilida o‘z munosabatlarini bildirish darajasida o‘rgatishdan iborat II. Asosiy qism (amaliy mashg‘ulotlar) II.I. Fan tarkibiga xorijiy tillarni o‘rganishning barcha kompetensiyalari kiradi: Ikkinchi chet tilidan o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda barcha til ko‘nikmalari - tinglab tushunish, o‘qish, yozish va gapirish talabalarga integrallashgan holda o‘qitiladi. OTMlarda ikkinchi chet tili sifatida o‘nlab xorijiy tillar o‘qitilishi sababli, mazkur dasturda har bir til bo‘yicha mavzularni keltirish imkoniyati yo‘q. Mavzular ishchi dasturlarda semestrlar va kurslar kesimida batafsil yoritiladi. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, o‘tkazish va talabalarning tilni o‘zlashtirganliklarini baholashda til egallashning xalqaro e’tirof etilgan mezonlariga amal qilinadi: Tinglab tushunish kompetensiyasi bo‘yicha: A1 daraja – kishilar sekin va aniq gaplashishganda talaba o‘zi va oilasi haqidagi so‘z va iboralarni tushunishi lozim.				

A2 daraja - o'ziga tanish mavzularga (masalan, sodda bayon qilingan oila, xarid, mahalliy hududlar, kasb, ish) oid ko'p ishlatiladigan so'z va iboralarni shuningdek, qisqa, aniq, sodda xabar va e'lonlarning asosiy mazmunini tushuna olishi kerak.

B1 daraja – o'ziga tanish bo'lgan mavzular bo'yicha (ish, ta'lim muassasasi, hordiq va b.) aniq aytilgan gapning asosiy mazmunini anglay olishi, bunda asosan matndagi muhim so'zlarga ahamiyat qaratgan holda butun gap mazmunini tushunishi nazarda tutiladi.

B2 daraja - ma'ruzalar yoki televideniye orqali beriladigan katta hajmdagi nutqni, tanish mavzulardagi qiyinroq nutqni tushunishi, TV va radio orqali beriladigan yangiliklarni tinglab, tomosha qilish jarayonida muhokama qilinayotgan mavzularning asosiy g'oyasini anglashi, adabiy tilda namoyish qilinadigan filmlar mazmunini yaxshi tushunishi lozim.

O'qish kompetensiyasi bo'yicha:

A1 daraja – o'qish jarayonida sodda gaplar (joy nomlari) bilan bayon etilgan so'z va iboralarni tushunishi kerak. (m.n., xarid qilingan buyumlarni qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar, belgilar, jadvallar va h.k.).

A2 daraja – juda qisqa, sodda matnlarni (qaydlar, eslatmalar, ko'rsatmalar) o'qib tushuna olishi, kundalik hayotga taalluqli (e'lon, reklama, menyu) matnlardan o'ziga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni topa olishi, qisqa va sodda yozilgan shaxsiy xatlarni o'qib tushunishi ko'zda tutiladi.

B1 daraja – kundalik turmush va ishga taalluqli so'zlar asosida tuzilgan matnlarni tushunish talaba uchun qiyinchilik tug'dirmasligi, xatlarda bayon etilgan voqea-hodisalar, joylar, hissiyotlar va tilaklarni tushunishi lozim.

B2 daraja – dolzarb mavzulardagi maqolalarni o'qib tushuna olishi, zamonaviy nasriy asarlarni o'qib mazmunini tushunishi lozim. Chunki talaba asarni o'qiyotganida uning so'zma-so'z tarjimasiga emas, balki asosiy g'oyasiga e'tibor qaratishi nazarda tutiladi.

Yozish kompetensiyasi bo'yicha:

A1 daraja – sodda va qisqa jummalarni, masalan pochta orqali jo'natiladigan xat (otkritka) larga yoziladigan gaplarni yoza olishi, shaxsiy ma'lumotlar (ism, familiya, millat va manzili) kiritilishi talab etiladigan maxsus blanklarni to'ldira olishi kerak.

A2 daraja - qisqa va sodda qaydlarni yoza olishi, masalan, do'stiga sodda gaplar asosida xat yoza olishi lozim.

B1 daraja – tanish yoki talabani qiziqtirgan mavzularda sodda gaplar bilan mazmunli matnlar yoza olishi, guvohi bo'lgan voqealar yuzasidan olgan taassurotlari haqida xat yoza olishi kerak.

B2 daraja – talaba o'zini qiziqtirgan mavzular bo'yicha ma'lumotlar bera olishi va ular yuzasidan o'z fikrlarini yozma bayon eta olishi, mavzu bo'yicha o'z qarashlarini, salbiy yoki ijobiy jihatlarni yozma ravishda aniq ifoda eta olishi lozim.

Gapirish (dialog, monolog) kompetensiyasi bo'yicha:

A1 daraja (dialog) – zarurat tug'ilganda sodda savollar bera olishi va shunday savollarga javob qaytarishi, suhbatdoshi talaba gapirgan gaplarni takrorlaganda/ to'g'rilaganda talabaga katta yordam bo'lishi ko'zda tutiladi.

Monolog - yashayotgan manzili va tanish kishilarni sodda gaplar bilan ta'riflay olishi, shuningdek, do'kon va mehmonxonalarda ishlatilishi mumkin bo'lgan gaplarni gapira olishi lozim.

A2 daraja (dialog) – kundalik hayotga taalluqli murakkab bo'lmagan va tanish mavzularda muloqotga kirisha olishi, ba'zida yaxshi tushuna olmasada muloqotni davom ettirish uchun o'ziga yoqqan va yoqmagan narsalar haqida gapira olishi, istaklarini sodda tilda bayon eta olishi kerak.

Monolog - oila, kundalik hayot, turmush tarzi, ta'lim olgan muassasalari va kasbini ta'riflash uchun so'z va iboralar tanlay olishi, ular yordamida gapira olishi lozim.

B1 daraja (dialog) – talaba o'rganayotgan ikkinchi chet tilida xuddi ona tilida gaplashgandek

gaplasha oladigan kishilar bilan kundalik mavzularda suhbat qura olishi, oila, xobbi, kasbiy faoliyat kabi mavzulardagi suhbatlarga osonlikcha qo'shila olishi hamda o'z fikr-mulohaza, his-tuyg'u va taassurotlarini bildiradi.

Monolog - talaba sodda gaplar bilan voqea-hodisalar, orzu-istak va niyatlarini ifodalay olishi, badiiy asar yoki film syujetlarini gapirib, taassurotlarini ifoda eta olishi lozim.

B2 daraja (dialog) – til sohiblari bilan erkin muloqot olib bora olishi, tanish mavzular muhokamasida faol ishtirok etishi, shuningdek, til sohiblaridan intervyu olish va o'z navbatida ularning savollariga javob qaytara oladi.

Monolog - talaba o'zini qiziqtirgan mavzular bo'yicha aniq va batafsil gaplar tuza olishi, tegishli mavzularga oid voqea-hodisa, narsalarni ta'riflay olishi lozim.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Ikkinchi chet tilidan barcha mashg'ulotlar amaliy shaklda, interaktiv metodlar asosida o'tkaziladi. Tilni aspektlar kesimida o'rgatishda jumladan,

Grammatikani o'rgatishda

- grammatikani o'qitish (grammatika va ma'no; grammatika va funksiya);
- grammatikani o'qitishga deduktiv va induktiv yondashuv;
- grammatikani kontekst orqali o'rgatish;
- lingvistik intuitsiya;
- til hodisalari;
- grammatik lug'atlardan foydalanish;
- grammatik vazifalarni tahlil qilish;
- grammatik mashq, topshiriq, vazifa, testlarni tuzish.

Fonetikani o'qitishda

- muvaffaqiyatli muloqot uchun talaffuzning muhimligi;
- urg'uni (so'z urg'usi, gap urg'usi) o'rgatish;
- intonatsiya, intonatsiyaning munosabatni bildirish va grammatik funksiyalarini o'qitish;
- tovushlarni izolyatsiyada va kontekstda o'qitish farqlari;
- fonologik vazifalarni tahlil qilish;
- fonetikaga oid mashq, topshiriq, vazifa, testlarni tuzishga o'rgatish maqsadga muvofiq.

Leksikani o'qitishda

- so'z va uning paydo bo'lishi;
- leksikani kontekstda o'qitish;
- leksik birliklar /iboralar/birikmalarni o'qitish;
- yangi leksikani o'rgatish (rasm, realiya, qo'shiq, multimedia va h.k.dan foydalangan holda);
- pedagogik maqsadlarda internet ma'lumotlaridan foydalanish;
- talabalarning leksikani o'rganish strategiyalarini rivojlantirish;
- leksik vazifalarni baholash;
- leksik vazifa, topshiriq va testlar tuzishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tilni o'qitish jarayonida ijtimoiy hayot va jamiyatning turli sohalariga oid dolzarb mavzularni qamrab olish ko'zda tutiladi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Shaxsni rivojlantirishda oliy ta'limning roli: oliy ta'lim darajalari, kvalifikatsiya, sertifikat va diplom.
2. Tili o'rganilayotgan mamlakatlarda talabalar hayoti.
3. Zamonaviy dunyoda chet tilining o'rni.
4. Tili o'rganilayotgan mamlakatlarning milliy urf-odatlarini, an'analari, bayramlari.
5. Sog'lom turmush tarzi: sport va fitnes, qishki va yozgi sport turlari.

	6. Ilmiy-texnik taraqqiyot va uning informatsion texnologiyalar sohasidagi yutuqlari. 7. Axborotlashgan jamiyatning ijobiy va salbiy tomonlari. 8. Tili o'rganilayotgan mamlakatlarda oilaning jamiyatdagi o'rni. 9. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish: xalqaro ekologik harakatlar va tashkilotlar. 10. Xalqaro tashkilotlar (BMT, YUNESKO va b.) va ularning global muammolarni hal etishdagi o'rni. 11. XXI asr informatsion texnologiyalari rivojining asosiy yo'nalishlari. 12. Xalqaro turizm: ommabop sayyohlik yo'nalishlari. Ikkinchi chet tilini o'qitish jarayonida talaba interfaol usullar vositasida mustaqil ta'lim olishga rag'batlantiriladi va ulardan o'z fikrini o'rganilayotgan chet tilida bayon qilish talab qilinadi. Talabadan fan bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlarini auditoriyada turli xil interaktiv uslublar orqali namoyish qila olishi va boshqalarga o'rgata olishi talab etiladi.
3.	V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilining fonetik va grammatik qonuniyatlari o'zlashtirishi va nutq jarayonida qo'llay olishi kerak; - o'rganilayotgan chet tilida og'zaki va yozma nutq amaliyotini shakllantirishi kerak; - o'rganilayotgan ikkinchi chet tilini xalqaro va milliy standartlarga ko'ra B2 darajada o'zlashtirish kerak; - o'z fikr va mulohazalarini lingvistik bilimlarga tayangan holda mantiqiy bayon qila olishi kerak; - ikkinchi chet tilida chop etilgan turli materiallar va axborot beruvchi boshqa vositalardan olingan autentik til materiallarini tushunish va tahlil qilish; - maxsus nomalar, biznes xatlar, elektron xatlar yozish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - o'rganilayotgan tilda mantiqiy insho va ilmiy ma'ruzalar, takliflar, xulosalar va tezislar yoza olishi kerak; - o'rganilayotgan tilda so'zlashuvchilar bilan muloqotga kirisha olishi kerak; - o'z sohasiga oid mavzularda intervyuda qatnasha olish, rasmiy savol-javoblarda ishtirok etish, ma'lum mavzu bo'yicha taqdimot qila olish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: -Fanni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodi va chet tilini o'qitishga kommunikativ yondashuvdan maksimal darajada foydalanish talab etiladi. Mashg'ulotlarda darslik va o'quv qo'llanmalardan tashqari autentik materiallar: audio, video, gazeta va jurnallar, internet manbalaridan, interaktiv usullarni qo'llagan holda aqliy hujum, keys-stadi, loyiha, rolli o'yin, debatlar, prezentatsiya metodlaridan keng foydalaniladi.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Talaba til egallashning xalqaro e'tirof etilgan darajalariga muvofiq o'rganilayotgan ikkinchi chet tilini kurslar kesimida talab etilgan darajada (A1-B2) bosqichma-bosqich o'zlashtirib borishi shart. Jumladan, joriy nazoratda auditoriyada bajariladigan mashq va topshiriqlar, portfolio, kundalik, loyihalar, intervyu va rolli o'yinlarda faol ishtirok etishi, video va audio materiallarni tushunib tahlil qilishi, muhokamalar jarayonida xorijiy tildan unumli foydalana olishi, oraliq va yakuniy nazoratda matnga asoslangan vazifalardan iborat turli test va topshiriqlarni bajarishi, mantiqiy savollarga mustaqil ravishda xorijiy tilda javob bera olishi, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirib borishi, mustaqil ta'lim uchun berilgan

	topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi lozim. Ikkinchi chet tili bo'yicha egallangan bilimlarni nazorat qilishda til bo'yicha barcha kompetensiyalar o'zlashtirilganligi inobatga olinadi..
6.	VIII.Asosiy adabiyotlar Ingliz tili 1. John and Liz Soars. "New Headway" (All levels) Oxford university. 2. Navigate (All levels) Oxford University Press 3. Cambridge English Skills: Real Listening and Speaking with Answers and Audio CD: Level 1-2 4. Malcolm Mann. Destination (full set) Macmillan Education, UK-2013. Nemis tili 1. Monika Bovermann Sylvietta Penning-Hiemstra. Schritte International. Hueber Verlag, Deutschland- 2012. 2. Sandra Evans, Angela Pude, Anna Breitsameter, Julia Braun-Podeschva Franz Specht u.a. Menschen. Deutsch als Fremdsprache A1-B1. Kurs-und Arbeitsbuch mit Audio DVD- Rom. 2012- 2016. Hueber Verlag GmbH tr Co. KG, 85737 Ismaning, Deutschland 3. А.Б. Абдуллаева, D.R. Mirsodiqova und andere. Deutsch 2. –Тошкент, 2009. Fransuz tili 1. Annie Berthet, Catherine Hugot, Veronique M. Kizirian, Beatrix Sampsonis, Monique Waendendries. Alter Ego. A1/A2. Méthode de Français. Hachette Français Langue Etrangère. France, 2013. 2. Catherine Dollez, Sylvie Pons Alter Ego B1. France, 2013. 3. Michel Barféty, Patricia Beaujouin. Expression orale, Niveau 1. France, 2013. 4. Michel Barféty, Patricia Beaujouin. Expression orale, Niveau 2. France, 2013. 5. Sylvie Poisson-Quinton, Rein Mimran. Expression écrite, Niveau 1. France, 2013. 6. Sylvie Poisson-Quinton, Rein Mimran. Expression écrite, Niveau 2. France, 2013. 7. Sylvie Poisson-Quinton, Rein Mimran. Expression écrite, Niveau 3. France, 2013. 8. Sylvie Poisson-Quinton, Rein Mimran. Compréhension écrite, Niveau 1. France, 2013. 9. Sylvie Poisson-Quinton, Rein Mimran. Compréhension écrite, Niveau 2. France, 2013. Qo'shimcha adabiyotlar Ingliz tili 1. Matt Clark – IELTS Speaking 2007 2. IELTS high score vocabulary list English – Timothy Dickeson 2012 3. Муминов О ва бошқалар. English for translators-Тошкент 2005 4. Get IELTS band 9 in writing task 1, Data, Charts and Graphs – Cambridge IELTS Consultants and Jessica Alpeme, Peter Switers 2014 5. Get IELTS band 9 in academic writing – Cambridge IELTS Consultants and Jessica Alpeme, Peter Switers 2014 Nemis tili 1. Ilse Sander, Birgit Braun, Margir Doubek u.a. DaF kompakt A1-B1 Kursbuch mit 3 Audio –CDs Ernst Klett Sprachen. Stuttgart, 2011. 2. Birgit Braun, Margir Doubek, Andrea Frater -Vogel u.a. DaF kompakt A1-B1 Übungsbuch mit 3Audio –CDs .Ernst Klett Sprachen. Stuttgart, 2011. 3. DaF kompakt A1-B1 Grammatik. Deutsch als Fremdsprache für Erwachsene. Ernst Klett Sprachen. Stuttgart, 2012 6. А.Б. Абдуллаева. Deutsch. – Тошкент, 2009. 7. Hartmut Aufderstraße, Jutta Muller, Thomas Storz. Lagune 1-2-3 Deutsch als Fremdsprache.Kursbuch. Arbeitsbuch. Hueber Verlag, 2006, 2007,2008 Fransuz tili 1. И. Н. Попова, Ж. А. Казакова. Французский язык. Manuel de francais Москва,2010 2. Barfety Michele, Patricia Beaujouin. Expression Orale1-A1/A2. Expression Orale B1. France,2013.

	3. Catherine Flumian, Josiane Labascoule. Methode FLE pour adultes Nouveau Rond Point. 2013 Axborot manbalari 1. https://learnenglish.britishcouncil.org/ 2. https://learnenglishteens.britishcouncil.org/ 3. https://www.britishcouncil.org/english/adults 4. www.toefl.com 5. http://www.cle.fr/centre_linguistique-fr-idm-105-n-Exercices-idh-17.html 6. www.englishtraining.ru 7. www.telc.net 8. www.bruna.nl/boeken-nederlands 9. www.goodreads.com/shelf/nederlands 10. www.nederlandsekust-Booking.com 11. www.gollantraining.edu 12. https://dutch.toearnfree.com 13. www.mein-deutsch.buch.de 14. https://www.dw.com/de/deutsch-lernen/s-2055 15. https://www.goethe.de/de/spr/ueb.html 16. https://deutschlernerblog.de/tipps-zum-deutschlernen/ 17. http://www.learn-german-online.net/learning-german-resouces/deutsch-via-internet.htm 18. https://www.alumniportal-deutschland.org/deutsche-sprache/online-deutsch-lernen/videos-und-interaktive-uebungen/ 19. https://www.deutsch-perfekt.com/ 20. www.korean.go.kr 21. www.test-arabic.com 22. www.baidu.com 23. https://nt2taalmenu.nl 24. https://ibratfarzandlari.uz/
7.	Urganch davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas’ullar: Sapayeva R. – Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Roman-german filologiyasi” kafedraasi katta o‘qituvchisi. Gulimetova B. – Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Roman-german filologiyasi” kafedraasi katta o‘qituvchisi. Yusupova M. – Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Roman-german filologiyasi” kafedraasi o‘qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: G.E. Abdullayeva – Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Roman-german filologiyasi” kafedraasi mudiri, katta o‘qituvchi. H.Q.Ro‘zmetov – Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Roman-german filologiyasi” kafedraasi dotsenti. F.B.Baxadirova – Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “Roman-german filologiyasi” kafedraasi katta o‘qituvchisi